

## MUZEYLARDA TA'LIM JARAYONI OLIB BORISH (QATAG'ON QURBONLARI XOTIRASI MUZEYI MISOLIDA)

*Sadikova Nasiba Baxtiyorovna*

*Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti o'qituvchisi*

### Annotatsiya

Muzeylarning faoliyatini rivojlantirish, ularni zamon talabi bilan o'sishini ta'minlash va yangi metodlarni ilgani surish. Ta'lim jarayonlari bilan muzeylarni uzviy bog'lash asosiy maqsad qilib olingan. Ta'limda ko'rish, eshitish, tushuntirish metodlarni muzey tematikasidan kelib chiqqan xolda, maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'lim jarayonlarida qo'llash. Jahonning yirik muzeylari tajribalarini o'rganish va ularni milliy an'analarimiz bilan qo'llash kabi masalarga ahamiyat qaratilgan. Muzeylarda zamonaviy texnika va texnologiyalardan o'rinli foydalanish bilan birga tomoshabinlarni jalb etishga metodlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, muzey, muzey ishi, ta'lim, eksponat, ekspozitsiya, zamonaviy muzey, jahon muzey, auditoriya, veb-sayd.

Mamlakatimizda yoshlarga bo'lgan e'tiborning yildan-yilga o'sib borayotgani bejiz emas. Negaki, yoshlar mamlakatimiz kelajagi. Ularga bo'lgan e'tibor ma'lum ma'noda kelajakka qo'yilgan mustaxkam poydevordir. Axir kelajak mana shu har tomonlama yetuk va bilimli yoshlar ko'lida. Yoshlarni vatanga muhabbat, milliy g'oya ruhida tarbiyalash jarayonini muzeylar faoliyati bilan uzviy bog'lab, qanday jihatlarga ko'proq e'tibor qaratilishi lozimligi to'g'risida bir qancha loyihalar ishlab chiqilmoqda. Zero, eng ilg'or muzeylarda yoshlar bilan ishlashning qator bosqichlaridan o'tib, ushbu masalani nafaqat amaliy faoliyat tajribasiga ega bo'ldilar, balki nazariya va konsepsiyalarni ham yaratdilar<sup>1</sup>. Bu tajriba natijalari o'rganilib, tahlil etilar ekan, ularni to'g'ridan-to'g'ri, aynan qo'llash kerak degan fikrdan yiroqdamiz. Lekin hali nazariyalar yaratish darajasiga yetmagan muzeyshunoslik sohasi jahon muzeylari andozalaridan foydalanishi zarur<sup>2</sup>.

Muzeylar jamiyat uchun nafaqat madaniy o'choqlardan biri balkim rivojlanishi uchun muhim maskanlardan biri sifatida e'tirof etish zarur. Ta'lim jarayonining ma'lum bir yo'nalishlarini ekspozitsiyalar yordamida kengroq taqdim etish bilan o'quvchini bilimga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi va ta'lim sifatini oshiradi.

Respublika maorif tizimini takomillashtirish, jamiyat hayotida muzeylarning

<sup>1</sup> Столяров Б.А. Музейная педагогика. История, теория, практика. – Москва: Высшая школа, 2004. – С. 200.;

<sup>2</sup> Музейное дело России / Под общей редакцией Каулен М.Е., Коссовой И.М., Сундиевой А.А. – Москва: Издательство «ВК», 2003. – 615 с.

rolini oshirish, malakali mutaxassislar tayyorlash, muzey muhitida va maorif muassasasi pedagogik muammolarni hal etadigan kun tartibidagi dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Ushbu vaziyat nafaqat O‘zbekistonda, balki dunyoning aksariyat mamlakatlarida mavjud. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgi zamon madaniyati va jamiyat hayotida muzeylar rolining oshib borishi bilan bir qatorda, unda ishlayotgan xodimlarni o‘qitish, malakasini oshirish ancha orqada qolmoqda.

Vujudga kelgan vaziyatni muzeylarning bozor iqtisodiyoti sharoitida faqat hayot uchun kurash muammosining ta’siri deb izohlash ham noo‘rindir. Uning ildizlari chuqur bo‘lib, muzey malakali xodimlarini tayyorlashga eskicha yondashuvdan vos kechgan holda, hozirgi kunga kelib O‘zbekiston Respublikasida O‘rta Osiyoda yagona Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti qoshida San’atshunoslik fakulteti Muzeyshunoslik kafedrasida faoliyat olib bormoqda. Tomoshabinlar bilan ishlashda ko‘p narsa mutaxassisning psixologik-pedagogik tayyorgarligi, bilim saviyasi, bugungi kundagi ijtimoiy-madaniy vaziyatni anglashiga bog‘liqligini ko‘rish mumkin<sup>3</sup>. Aynan ushbu bilim yurtida muzeyshunoslikning nozik nuqtalari va o‘ziga xos jihatlarini o‘rganishi, amaliyotlarda qo‘llash imkoniyatini beradi.

Insoniyat qadim zamonlardan o‘zining ijtimoiy tajribasini keyingi avlodlarga qoldirish usullarini yaratgani ma’lum. Muzey esa madaniy tajribani to‘plash, tavsiflash va saqlashning eng maqbul shakli bo‘lib kelgan<sup>4</sup>.

Muzey va ta’limning o‘zaro aloqalari ilm va fanning turli sohalari hamkorligining samarasidir. Shuni ko‘rsatmoqdaki, muzeyning umumta’lim jarayoniga kiritilishi, insonni ruhiy va axloqiy jihatdan juda tez o‘zgarib borayotgan olamda faqat yashashga tayyorlabgina qolmasdan, uning sodir bo‘layotgan ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanishiga ham xizmat qiladi.

Zamonaviy muzey – ilm, fan va ma’daniyat o‘chog‘i bo‘libgina qolmay, zamon bilan teng yuruvchi va zamonaviy texnika, texnologiyalar bilan foydalanuvchi tajribaviy maskandir.<sup>5</sup> Bugungi kunga kelib texnologik rivojlanish butun dunyoni qamrab oldi, xayotimizning barcha jabxalariga kirib, muzey olamiga ham jiddiy o‘zgarishlar olib keldi. Jahon muzey tashrifchilari muzeyga kirishdan avval zamonaviy texnika va texnologiyalar yordamida turli xildagi formatlarda muzey ekspozitsiyasi bilan tanishish imkoniga ega bo‘ldilar.

Yangiliklardan yana biri kichik xajmdagi elektron yo‘l ko‘rsatkichidir. Uning yordamida ekspozitsiyada namoyish etilgan eksponat to‘g‘risida qisqa ma’lumot olish mumkin, u muzey dizaynerlari tomonidan maxsus ko‘rinishga ega bo‘lib, modellashtirilgan o‘yinlar va artefaktlarning rekonstruksiyalari ko‘rsatilgan.

<sup>3</sup> Столяров Б.А. Музейная педагогика. История, теория, практика. – Москва: Высшая школа, 2004. – С. 5.

<sup>4</sup> Новости всемирного наследия // Мировое наследие. Москва, 2003. – № 5. – С. 64-67.

<sup>5</sup> [www.tourlib.net](http://www.tourlib.net) Экскурсионные и туристические маршруты

Auditoriya va ekspozitsiyani bir-biriga bog'lash uchun nimalarni qilish va qanday loyixalar yordamida xissiyotni uyg'otish mumkinligi to'g'risida ma'lumotlarni olish bilan birga ko'plab muzey ishlariga aloqador masalalar bo'yicha fikr almashib, muloqotlar olib boriladi.<sup>6</sup>

Biroq, har qanday texnika oldida mutaxassis ekskursavod olib boradigan ekskursiyaga talab ko'ploq. Buni jahonning yirik muzeylari misolida ham ko'rish mumkin.<sup>7</sup> Har bir texnikadan unumli foydalanish orqaligina inson o'z ish faoliyatidan samara olishi mumkinligi esa isbotlangan. Texnika-texnologiyaning qo'llanilishi zamon talabi, insonning o'zi ustida olib borgan ishlari esa xar doyim turli xillardagi tezkor muloqotda o'z natijasini ko'rsatadi.

Hozirgi kunga kelib butun jahon muzeylari oldida "XXI asr muzeyi qanday bo'lishi va tashrifchilarni qanday jalb qilishi kerak",-degan muammoli masala ko'ndalang turibdi. Binobarin jamiyatning jadal suratlarda taraqqiy etishi, kompyuter texnologiyalarining yuksak rivojlanishi natijasida kishilar kundalik xayotiga 3D, 5D, 7D, 9D elektron filmlarning kirib kelishi, virtual (elektron) muzeylarning paydo bo'lishi va yana ko'plab omillar, fuqarolarning borgan sari san'at olamiga bo'lgan qiziqishini susaytirib, ularni teatr, turli tomoshalar, konsertlar, kino olami, ko'rgazma zallari hamda muzeylardan uzoqlashtirib bormoqda. Ayniqsa pandemiya butun mamlakatni egallagan bir vaqtda xususiy muzeylarning tomoshabinlarga boshqacha yondoshish metodlar bilan ishlash masalasini qo'ydi. Bunda vertual muzey sayyoxatlari keng o'rin egallashi bilan birga qiziqarli veb-saydlar yaratish ko'lamini kengaytirdi. Endilikda o'z uyida o'tirib, yirik muzeylarga elektron shaklda tashrif buyurish imkoniyatlari kengaydi va rivojlandi. Ma'lumki, istalgan jamiyatning yoki davlatning yuksalishida insonlarning ma'naviy kamoloti, madaniy saloxiyati muxim o'rin egallaydi.

Insonlarning madaniy me'rosini saqlab qolish, o'z tarixi, dunyoqarashi va san'atidan baxramand bo'lishda muzeylarning o'rni beqiyos deb hisoblanadi. Ammo hozirgi kunga kelib muzeylarga bo'lgan e'tibor susayotganini ko'rish mumkin va bu muammoli masalani jaxon muzeylarida turli xil yo'llar bilan o'z yechimini topish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Masalan, Rossiyaning Yaroslav shaxridagi tarixiy o'lkashunoslik muzeyi 1993 yildan boshlab tashrifchilar uchun maxsus kechalar uyushtirib, ularni qiziqtirgan savollarga javob beradilar<sup>8</sup>. Jahonga mashxur Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSh, Turkiya, Rossiyaning ayrim muzeylarida esa ziyoratchilar uchun maxsus, bepul tashrif kunlarini belgilagan. O'zbekiston Respublikasida esa xar oying birinchi yakshanba kuni bepul tashrif qabul qilinadi. Shu bilan birga soha

<sup>6</sup> [www.n-cult.ru](http://www.n-cult.ru) Издательство «Наука и культура». Музей №7 // 2011. Информационные технологии в музеях Нью-Йорка и России. Елена Медведева и А.Григорьева.

<sup>7</sup> <http://museum.fondpotanin.ru> Димогло М.В. Современность и традиционность музейного содержания

<sup>8</sup> [http:// student.km.ru/](http://student.km.ru/) Современные формы работы с посетителями музеев Германии и России Д. Е. Озрова.

olimlari masalani, yumshatish uchun psixologik, sotsiologik tadqiqotlar ham olib bormoqdalar. AQSh tadqiqotchilaridan biri Elen Xuper-Grinxillning fikricha muzey xodimlari, tashrifchilarning ongiga ta'sir etishidan avval ularni nimadan ta'sirlanishlarini bilishi zarur. O'z izlanishlariga tayangan holda, "Men o'z tadqiqotlarimda shuni bildimki, insonlar mavzuga emas, ko'proq buyumlarga qiziqadilar va ularni ko'rishga ko'p vaqtlarini sarflaydilar. Qaysi buyum ularda ko'proq qiziqish uyg'otsa, shu buyum to'g'risida ko'proq ma'lumot olishga intiladilar",-deb ta'kidlaydi tadkikotchi.<sup>9</sup> Bu fikrni keyinchalik Moskva muzeylaridan biri tajriba sifatida muzey ekspozitsiyasi mavzusiga doir bo'lmagan eksponatlar bilan to'ldirildi. Natijada tashrifchilar soni keskin o'sishi kuzatildi. Bu kabi misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Mustakillikka erishgach, ko'p soxalarda, jumladan ta'lim-tarbiya tizimida xam isloxotlar olib borildi. Tizimda yangi metodlar ishlab chiqildi, zamonaviy texnika-texnologiyalar bilan ta'minlandi, barcha qulayliklarga ega ilm maskanlari barpo etildi. Endilikda oliy ta'lim tizimida yangi yo'nalish muzey pedagogikasi ham o'rin egalladi. Biroq, hozirda muzey pedagogikasi faqatgina oliy ta'lim tizimida emas balki, kichik yoshdagi ta'lim-tarbiya muassasalarida, oilada o'rgatilishi va muzeylar to'g'risida tushuncha shakllantirish lozim. Bu jarayonlarning jonli misoli tariqasida Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti fakultetlari tomonidan oliy ta'lim muassasalari uchun ishlab chiqilgan besh tamoyilni tadbiq etish jarayonlari yo'lga qo'yilgan. Muzeyshunoslik kafedrasida o'z ichiga olgan iqtidorli talabalari bilan birgalikda bog'cha va maktablarda "Muzey nima?" "Menning kasbim faxrim" shiori ostida targ'ibot ishlari bilan faollik ko'rsatilmoqda. Shu bilan birga muzeylarda o'quv amaliyot darslarini kengaytirish, ekspozitsiyada namoyish etilayotgan eksponatlardan o'rinli namunalar keltirish bilan o'quvchining ongiga tezrok yetkazish muzeyshunoslarning maqsadlaridan biridir.

Zamon o'z shiddati va texnologiyalarning keng miqyosda hayotiy faoliyatning asosiga aylanib borishi natijasida yoshlarning bilim olishga bo'lgan talabi ham o'zgarib bormoqda. Yoshlar endilikda texnologik vositalar yordamida ta'lim olish metodlarini amalga oshirish talabini qo'yish bilan ularni kitobga bo'lgan qiziqishi so'nib, kompyuter, planshet, telefon orqali ma'lumotlarni qabul qilishlari barchamizga ma'lum. Ammo internet orqali olinayotgan barcha ma'lumotlar ham filterdan o'tmaganligi, aksariyatida axborot manbalarining noto'g'riligi yoshlar o'rtasida ma'lumotlarni saralay olmaslik natijasida, bilimning sayozligini ko'rish mumkin. Texnologiyalarning rivojlangan va yoshlarni o'z domiga tortayotgan bir vaqtning o'zida muzeyshunoslik yo'nalishining o'ziga xos tomoniti ta'lim jarayoni bilan birga

<sup>9</sup> <http://www.cultivate.ru/> Чувилова И.В. Музеи общества и общество в музее, Cultivate-Russia Web Magazine, выпуск 1, октябрь 2002 г.

bogʻlagan xolda amalga oshirish imkoniyatlarini yoʻlga qoʻyish mumkin. Bu metod orqali biz taʼlim sifatini oshirish bilan bir qatorda yana yoshlar ayniqsa maktab yoshidagi oʻquvchilarning atroflicha fikrlashlarga yordam bera olamiz.

Muzeylar bilan taʼlim jarayonning uzviy olib borilishi oʻquv protsessining mukammal oʻquvchi tomonidan egallanishiga imkoon yaratadi. Oʻrta taʼlim vazirligi bilan muzeylar tomonidan uzviy taʼlim dasturiga mos ravishda loyixalar ishlab chiqilishi hamda ularning samarali amalga oshirilishi natijasida bir necha taʼlim jarayonining mukammal egallanishi uchun imkoniyatlarni qoʻlga kiritishimiz mumkin.

- Oʻquvchilarning maktab binosidan, oʻquv partalaridan uzoqlashgan holda taʼlim olishlari;
- Mavzuni zamonaviy texnikalar bilan qurollangan kyosklar, eksponatlar va foto-hujjatlar yordamida oʻrganish;
- Bergilangan mavzuni oʻqituvchi emas, balkim ekskursavod-git yordamida oʻtilishi;
- Bilimlarni mustaxkamlash uchun turli trenning savollarni oʻtkazish;
- Olingan maʼlumotlarni mustaxkamlash uchun erkin ekspozitsiyani oʻrganish;
- Oʻquvchilar odatiy muxitdan uzilgan holda biron bir masofani bosib oʻtishlari (transport, piyoda harakatlanish);

Bu loyihani amalga oshirishda taʼlim jarayoniga “Muzeyda dars”, “Erkin dars” kabi dasturlarni kirishi kerak boʻladi. Oʻz oʻrnida bu dasturlar asosida muzeyda faoliyat olib borayotgan ekskursavod-gidlar ham tayyorlanadi. Yoʻl koʻrsatkichlar, maxsus multemediya dasturlari va video lavhalar joriy etirishi kerak. Oʻquvchilarning shu oʻrinda qatlamlarga ajratib olinishi kerak. Yaʼni ularning yoshlari va muzeylarning strukturasi inobatga olgan holda. Bu taqdim etilayotgan loyiha zamonaviy taʼlim jarayoniga toʻliq mos kelishi yevropa muzeylari tomonidan isbotlangan. Misol uchun AQShning Metropolitan muzeyda asosan maktab oʻquvchilarining Oʻrta Osiy mamlakatlar tarixi mavzusidagi “Jahon tarixi” (World history) fanidan dars oʻtiladi.

Muzeyda olingan bilimni mutaxkamligini tekshirish uchun test, soʻrovnoma, savol-javob va yana bir qancha usullar yordamida tekshirib koʻrish mumkin. Yosh avlodning bilimli boʻlishi kelajak uchun muhim ekanini unitmaslik kerak.

Muzey tashrifchilarining yoshlarini eʼtiborga olgan holda aloxida maʼruzalar matnini tayyorlab, kelgan xar bir tomoshabinda qiziqish uygʻotish mumkin. Amerika muzeylarida tomoshabinlarning yoshiga qarab maʼruzalar oʻqiladi, ekskursiyalar gidlar yordamida olib boriladi va mavzu tushuntiriladi.<sup>10</sup> Mavzuni yanada

<sup>10</sup> И.Илалова. Музееведение. Ташкент “Муסיқа”-2006

mukammallashtirish maqsadida esa zallar bo‘ylab turli xil savollar joylashtirilib, ularning javobini topish uchun o‘quvchi o‘zi ekspozitsiyani yana bir ko‘zdan kechirib kelishi nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, muzey binosining joylashishi, ko‘rinishi xam muxim ahamiyat kasb etadi. Muzeylar asosan bog‘, sayilgoxlar yaqinida joylashishi, atrofi go‘zal tabiat manzarasidan iborat bo‘lishi lozim. O‘zbekiston muzeylari misolida ko‘rib chiqiladigan bo‘lsa, mazkur talablarga O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Buxorodagi Moxi Xossa saroy muzeyi, Termiz arxeologiya muzey, Samarqand Davlat muzey va yana ko‘plab bir qator muzeylar misolida ko‘rish mumkin. Tabiiyki, atrofida go‘zal bog‘ tashkil etilgan muzeylar o‘zining go‘zal manzarasi bilan tashrifchilarni jalb etib kelmoqda.<sup>11</sup>

Muzeylarga tashrifchilarni jalb qilishda turli guruhlar o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazishni xam o‘ziga xos metod deb qarash mumkin. Bundan ko‘zlangan maqsad, kelgan tashrifchi shunchaki muzeyni tomosha qilibgina qolmay, balki undan o‘ziga kerakli xulosaga ham ega bo‘lishi va nimalar ularda salbiy va ijobiy ta’sir qoldirganini bilishdir. Masalan, Moskvaning bir qator muzeylarida maktab yoshidagi bolalar bilan shunday so‘rov tadbirlari o‘tkazilgan, ularning ko‘plari ekskursavodlar bergan ma’lumotlarni noto‘g‘ri tushunishgani so‘rov natijasida aniqlangan.<sup>12</sup> Muzeyning asosiy vazifalaridan biri, kelgan tashrifchilarga eksponat va ekspozitsiyani to‘g‘ri tushuntirib berilish natijasida muxim ma’rifat o‘chog‘i maskaniga aylanishidir.<sup>13</sup>

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki muzeylarning jamiyat va insonlar hayotidagi o‘rni beqiyosdir. O‘tmishni, tarix tajribasini o‘rganish, ajdodlar yaratgan betakror moddiy va ma’naviy merosni asrash hamda targ‘ib etishda, istiqlol yo‘lidagi maqsadlarni aniqlashda muzeylar faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda O‘zbekiston bo‘yicha 1400 ga yaqin turli xildagi muzeylar mavjud. Ushbu muzeylarda xalqimizning uzoq tarixidan hikoya qiluvchi, milliy mafkura va tafakkurni rivojlantiruvchi, yoshlarda milliy g‘urur va iftixorni yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega materiallar ekspozitsiyaga qo‘yilgan. Ulardan to‘g‘ri va samarali foydalanib, yoshlarni muzeylarga jalb qilish imkoniyatlari ko‘p.

<sup>11</sup> [www.zarubejye.com](http://www.zarubejye.com)

<sup>12</sup> Copyright © Государственный Русский Музей. Разработка. Петерлинк-Веб.

<sup>13</sup> Н.С.Садыкова. Музейное дело в Узбекистане.

### Адабиётлар рўйхати

1. Столяров Б.А. Музейная педагогика. История, теория, практика. – Москва: Высшая школа, 2004.
2. Музейное дело России / Под общей редакцией Каулен М.Е., Коссовой И.М., Сундиевой А.А.. – Москва: Издательство «ВК», 2003.
3. Новости всемирного наследия // Мировое наследие. Москва, 2003. – № 5.
4. И.Илалова. Музееведение. Ташкент “Муסיқа”-2006.
5. [www.zarubejye.com](http://www.zarubejye.com)
6. [www.tourlib.net](http://www.tourlib.net) Экскурсионные и туристические маршруты
7. [www.n-cult.ru](http://www.n-cult.ru) Издательство «Наука и культура». Музей №7 // 2011. Информационные технологии в музеях Нью-Йорка и России. Елена Медведева и А.Григорьева.
8. <http://museum.fondpotanin.ru> Димогло М.В. Современность и традиционность музейного содержания
9. [http:// student.km.ru/](http://student.km.ru/) Современные формы работы с посетителями музеев Германии и России Д. Е. Озрова.
10. <http://www.cultivate.ru/> Чувилова И.В. Музеи общества и общество в музее, Cultivate-Russia Web Magaine, выпуск 1, октябрь 2002 г.